

MATNNING STRUKTURAVIYLIGI

Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti professori, f.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15075094>

Annotatsiya. *Badiiy matn ko'plab xususiyatlarga ega ochiq adabiy-poetik tizim bo'lib, uning bunday alomatlari orasida belgiviylilik, ya'ni belgi orqali o'zini namoyish qilishi va strukturaviyligi alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu ikki jihat matnning o'zligi – mohiyatini ifoda etadi.*

Badiiy matnning yana bir jihati uning noyob adabiy-estetik hodisa ekanligida ko'rinadi.

Taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning nasriy ijodiga tegishli shoh asarlar ana shunday yuksak maqom darajasiga ko'tarilgan. Maqolada adibning atigi ikki saphifaga yaqin "Bemor" hikoyasi matn nazariyasi asosida tadqiq etildi va uning chindan ham badiiy matn namunasi ekanligi tahlillar davomida dalillanadi.

Kalit so'zlar: *Struktura, semiotika, badiiy matn, badiiy-poetik tizim, matn qurilmasi, paradigmatic belgilar, tabib, sintagmatik munosabat.*

Annotatsiya. *Художественный текст представляет собой открытую литературно-поэтическую систему, обладающую многими характеристиками, среди которых особое место занимают семиотика, то есть проявление ее посредством знаков, и структурность. Именно эти два аспекта выражают суть текста.*

Еще одним аспектом художественного текста является то, что он представляет собой уникальное литературно-эстетическое явление. Столь высокий статус получили шедевры прозаического творчества известного узбекского писателя Абдуллы Каххора. В статье на основе теории текста рассматривается рассказ писателя «Пациент», объем которого составляет всего около двух страниц, и анализ доказывает, что он действительно является примером художественного текста.

Ключевые слова: *Структура, семиотика, художественный текст, художественно-поэтическая система, текстовый аппарат, парадигматические знаки, целитель, синтагматические отношения.*

Abstract. *A literary text is an open literary-poetic system with many features, and among its features, signification, that is, its manifestation through a sign, and structurality occupy a special place. It is these two aspects that express the identity - the essence of the text.*

Another aspect of a literary text is its unique literary-aesthetic phenomenon. The masterpieces of the prose work of the famous Uzbek writer Abdulla Qahhor have been elevated to

such a high status. The article studies the writer's story "Patient", which is only about two pages long, on the basis of text theory, and it is argued during the analysis that it is truly an example of a literary text.

Key words: *Structure, semiotics, artistic text, artistic-poetic system, text device, paradigmatic signs, healer, syntagmatic relationship.*

Har qanday matn birinchi navbatda struktura, ya'ni badiiy-poetik tizim hisoblanadi.

Bunday tizim, tabiiyki, o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U badiiy matn tarkibidagi ko'plab belgilarning bir-biri bilan aloqa-munosabatga kirishishi davomida shakllanadi.

Yu.M. Lotman "Struktura xudojestvennogo teksta" ("Badiiy matn strukturasi") nomli kitobida matn qurilmasi birinchi navbatda paradigmatic va syntagmatic "o'q" (qator)larning shakllanishidan yuzaga kelganini ko'rsatgan. Bu haqda olim shunday deb yozgan edi: "Badiiy matn boshqacha tuzilgan: har bir tafsilot va umuman butun matn turli munosabatlar tizimiga kiradi, natijada bir vaqtning o'zida bir nechta ma'no paydo bo'ladi. Bu xususiyat metaforada namoyon bo'lganda, umumiy xususiyatga ega".

Matndagi turli-tuman belgilarning shu tarzda bir-biri birlashib muayyan semiotik "o'qlar" hosil qilishini "Bemor" hikoyasi matni misolida ham yaqqol ko'rsa bo'ladi.

Buning uchun biz avval mazkur matn tarkibida o'xshashlikka asoslangan paradigmatic belgilar qatorini shakllantiramiz:

1. Bemor.
2. Osmon yiroq, yer qattiq.
3. Sotiboldining xotini og'rib qoldi.
4. Bemorning ko'zi tinib boshi aylanadigan bo'lib qoldi.
5. Bir kechasi bemor juda azob tortdi.
6. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-buyog'ini siladi... so'ngra o'tirib yig'ladi.
7. Bemor kundan kun battar, oxiri o'sal bo'ldi.
8. Bemor "...yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi.

Yuqorida keltirilgan turli lug'aviy, sintaktik birliklardagi ifodalangan barcha belgilar bir qatorga o'xshashlik asosida birlashgan. Bu o'xshashlikni xasta ayol ahvolining kun sayin og'irlashib borayotgani o'zaro bog'lab-tutashtirib turibdi. Yuriy Lotmanning yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotida badiiy matnga xos yana bir xususiyat – belgilarning bir ichki tizim (masalan, paradigmatic qator)da darajalanishi ko'rsatilgan.

Bu haqda u shunday deydi: “Shuni ta’kidlash kerakki, matnning moddiy ifodasi haqida gapirganda, biz ishora tizimlarining bir, o’ta o’ziga xos xususiyatini nazarda tutamiz. Ulardagi moddiy substansiya "narsalar" emas, balki narsalarning munosabatlaridir. Shunga ko’ra, bu tashkiliy shakl sifatida tuzilgan badiiy matn muammosida, ya’ni uni tashkil etuvchi moddiy birliklarning muayyan munosabatlar tizimida namoyon bo’ladi. Buning sababi, matnning turli darajalari o’rtasida qo’shimcha strukturaviy aloqalar - tizim turlari o’rtasidagi munosabatlar o’rnatilishi mumkin”.

Badiiy matn ustida olib borilgan tadqiqotlar unda aksar hollarda paradigmatic munosabatlar yetakchi o’rinda tutganini ko’rsatadi. Bu hodisaning sababi shundaki, biror-bir badiiy niyatni yuzaga chiqarishda yaqin birinchi navbatda yaqinlik – aloqaviylik ko’zga tashlanadi. Bu qarash “Bemor” doirasida ham o’z tasdig’ini topadi:

Sotiboldi – xotini – qizchasi (oila paradigmasi);

Sotiboldining xotini – Abdug’aniboy (bemorlikka asoslangan paradigma);

tabib – baxshi-doktor (tarixiy xronotopda tasvirlangan davrda davolanish bilan shug’ullangan kishilardan tashkil topgan qator).

Matndagi sintagmatik qator (lar) o’zaro yaqinlikka emas, qo’shnihilikka asoslanadi.

Matndagi qo’shnihilik deganda faqat yonma-yon turgan belgi yoxud sintaktik birlik tushunilmaydi. Badiiy matn doirasidagi har qanday belgi, agar u o’xshashlikka asoslanmagan bo’lsa, boshqa belgi(lar)ga qo’shni hisoblanadi. Bir-biriga o’xshamagan bir necha belgi bir matn doirasida bir tizimga mansub bo’lish xususiyatiga ega:

1. Bemor

2. Osmon yiroq, yer qattiq

3. Chigit po’choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo’jayini Abdug’aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o’ladigan bo’lganda bu doktorxonaga bormay, Simga ketgan edi

4. Pashsha g’ing’illaydi.

5. Sotiboldi to’qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko’tardi.

“Bemor” matnining turli joylaridan olinib, yuqorida keltirilib, raqamlangan matniy bo’laklar sathidagi belgilar yaqinlikka asoslanmagan, chunki ular orasida zohiriy aloqadorlik-bog’liqlik dabdurustdan ko’zga tashlanmaydi. Lekin matn o’z tarkibiga ketgan har qanday so’z, birikma, gap, hatto morfologik vositalar, turli-tuman qo’shimchalar, tinish belgilarigacha belgi vazifasini yuklab, boshqa segmentlar bilan uzviy munosabatga kiritish xususiyatiga ega. Matn tarkibiga kirgan har qanday birlik boshqalari bilan bog’lanishi zurur, aks holda matn ularni o’z hududidan darhol chetga chiqarib tashlaydi.

Sintagmatik munosabatda bir-biriga o'xshamagan birliklar o'zaro birikib sintagmatik o'qni yuzaga keltiradi, bu esa matn strukturasini tashkil etishda o'ziga xos badiiy-funksional ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Rayhonoy, S., & Murodov, G. (2020). Structural semiotic analysis of a literary text. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 3319-3323.
2. ABDUGANIEVNA, S. R. The Role of Semiotics in Literature. *JournalNX*, 6(09), 190-193.
3. Rayhonoy, S., & Murodov, G. (2020). Structural semiotic analysis of a literary text. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 3319-3323.
4. Муродов, Г., & Саидова, Р. (2017). Интерпретация терминов и их анализ. *Молодой ученый*, (13), 703-705.
5. Saidova, R. A. (2020). SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION. *Theoretical & Applied Science*, (2), 201-205.
6. Abduganievna, S. R. Semiotic Analysis of a Literary Text. *International Journal on Integrated Education*, 3(3), 51-56.
7. Avazova, N., & Jalilova, O. (2024). ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 20-24.
8. Avazova, N. (2024). TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR: ANVAR OBIDJON IJODIDA TO 'RTLİK SHAKLIGA YANGICHA POETİK MUNOSABAT IFODASI. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).
9. Avazova, N. (2024). THE ROLE OF THE QUATRAINS IN NAVOI PROSE AND SCIENTIFIC WORKS. *Modern Science and Research*, 3(10), 176-179.
10. SO, N. A. S. L. D. SHEVA LEKSIKASIDA DIALEKTAL SO 'Z TURLARI (Buxoro viloyati, G 'ijduvon tuman shevasi misolida). *THEORETICAL ISSUES OF UZBEK LINGUISTICS*, 248.
11. Rayhonoy, S., & Murodov, G. (2020). Structural semiotic analysis of a literary text. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 3319-3323.
12. Муродов, Г., & Саидова, Р. (2017). Интерпретация терминов и их анализ. *Молодой ученый*, (13), 703-705.

13. Jo'rayeva, L. (2024). ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 3(3), 124-127.
14. Laylo, J. R. (2024). NAVOIY ASARLARIDAGI OZIQ-OVQAT VA O'SIMLIK LARNING LINGVOMADANIY TADQIQI. News of the NUUz, 1(1.3), 299-302.
15. Tilavova, M. (2023). FRAZEOLOGIK POLISEMIYA HAQIDA BA'ZI MUHOZALAR. *Philological issues are in the eyes of young researchers*, 1(1).
16. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. *Science and innovation in the education system*, 2(5), 197-203.
17. Tilavova, M. (2024). ABOUT THE LINGUISTIC AND SPIRITUAL CHARACTERISTICS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS USED IN THE WORK "HUMAN PROPERTY". *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(11), 156-165.
18. Тилавова, М. (2024). ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, РОДСТВЕННЫЕ СЛОВУ, УПОТРЕБЛЕННОМУ ТАХИРОМ МАЛИКОМ В «ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ СОБСТВЕННОСТИ». *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.
19. Tilavova, M. (2024). "ODAMIYLIK MULKI" ASARIDA QO'LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SINONIMIYA HODISASI VA ANTANAMIYA HODISASI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3, 62-67.
20. Tilavova, M. (2024). ANSICHTEN ZU DEN SPRACHLICHEN UND SPIRITUELLEN EIGENSCHAFTEN EINIGER PHRASEOLOGIEEINHEITEN, DIE IM WERK „HUMAN PROPERTY“ VERWENDET WERDEN. *Modern Science and Research*, 3(10), 100-107.
21. Tilavova, M. (2024). SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF SOME ANTI-MEANING UNITS USED IN TAHIR MALIK'S WORK "HUMAN PROPERTY". *Инновационные исследования в науке*, 3(11), 35-40.